

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH VA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI
OLISHDA DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI IDORAVIY QOROVULLIK
BO‘LINMALARINING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORA-
TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

“Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi **Qonuni** ijrosini ta‘minlash, shuningdek, davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat korxonalari va muassasalari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) idoraviy qorovullik bo‘linmalarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish mexanizmini takomillashtirish hamda ularga ko‘maklashish va amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining **Qonuniga** muvofiq quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo‘linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarini xabardor qilish hamda o‘zaro hamkorlik qilish tartibi haqidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin:

davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy qorovullik bo‘linmalari tomonidan qo‘riqlanadigan obyektlarda jinoyat, boshqa huquqbuzarliklar va hodisalar, shubha uyg‘otuvchi, qidiruvdagi shaxslar va yuzaga kelgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo‘lgan o‘zga holatlar to‘g‘risida hududiy ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalariga tezkor xabar berish tartibi, shuningdek qorovullik bo‘linmalari xodimlari bilan ushbu masalalarga oid yo‘riqnomaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazishning umumiy qoidalari;

hududiy ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘linmalarining xabar bergan davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy qorovullik bo‘linmalari bilan hodisa joyida amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyati;

ichki ishlar organlari va O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan idoraviy qorovullik bo‘linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar haqidagi xabarlarini bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish tartibi;

ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari faoliyatiga ko‘maklashish va yaqindan yordam ko‘rsatish bo‘yicha vazifalarni bajarishda o‘rnak ko‘rsatgan idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish.

2. Vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa davlat organlari va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Milliy gvardiyasi bilan birgalikda:

bir oy muddatda o‘z tarkibidagi idoraviy qo‘riqlash bo‘linmalarida mazkur qarorning maqsadini, mohiyatini, amaliy ahamiyati va ijro etish tartibi yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkillashtirsin;

jamoat xavfsizligini ta‘minlashda, jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan shaxslarni aniqlashda, o‘ziga yuklatilgan boshqa vazifalarni bajarishda o‘rnak ko‘rsatgan davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimlarini rag‘batlantirib borish choralarini ko‘rib borsin;

joriy etilayotgan tartibning samaradorligi yuzasidan tizimli monitoringni amalga oshirib borsin va qaror talablari bajarilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Milliy gvardiyasi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri P.R. Bobojonov hamda Milliy gvardiyasi qo‘mondoni R.M. Djurayev zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2022-yil 14-oktabr,
598-son

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi 598-son qaroriga
ILOVA

Davlat organlari va tashkilotlari idoraviy qorovullik bo'linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarini xabardor qilish hamda o'zaro hamkorlik qilish tartibi haqida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu nizom davlat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat korxonalari va muassasalari (keyingi o'rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) idoraviy qorovullik bo'linmalari tomonidan qo'riqlanadigan obyektlarda sodir etilgan jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar, shubha uyg'otuvchi va qidiruvdagi shaxslar, yuzaga kelgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar, jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo'lgan o'zga holatlar (keyingi o'rinlarda — huquqbuzarlik va hodisalar) yuzasidan ichki ishlar organlari hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo'linmalarini (keyingi o'rinlarda — Milliy gvardiya bo'linmalari) xabardor qilish hamda ular bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu nizom qoidalari idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan qorovullik hamda idoraviy jihatdan tegishli bo'lmagan harbiylashtirilgan qo'riqlash faoliyatiga, shuningdek maxsus yuklarni transportda tashish jarayoniga nisbatan tatbiq etilmaydi.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

idoraviy qorovullik bo'linmalari — davlat organlari va tashkilotlarining o'z obyektlarini qo'riqlash uchun yuridik shaxs tashkil etmasdan tuziladigan tarkibiy bo'linmasi yoki alohida xodimi;

qo'riqlanadigan obyekt — belgilangan tartibda qo'riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport vositalari, transportda tashiladigan yuklari, pul mablag'lari, moddiy boyliklari va boshqa mol-mulki, shuningdek jismoniy shaxs.

4. Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlarining ish joyida huquqbuzarlik va hodisalar haqidagi darhol xabar berilishi lozim bo'lgan profilaktika inspektorlari, hududiy ichki ishlar organlarining va Milliy gvardiya bo'linmalarining navbatchilik qismlari, shuningdek patrullik yo'nalishlari obyekt atrofidan o'tadigan ichki ishlar organlari patrol-post xizmati va Milliy gvardiya bo'linmalari naryadlarining ro'yxati hamda ular bilan axborot almashinuvini ta'minlash tartibi belgilangan bo'lishi kerak.

5. Mahalla huquq-tartibot maskanida ushbu maskanning javobgarligi hududida joylashgan qo'riqlanadigan obyektlar va idoraviy qorovullik bo'linmalar, ularning asosiy tavsiflari (manzili, obyekt va qorovullik bo'linmasi rahbarlari, muloqot telefonlari, idoraviy qorovullik bo'linmasi xodimlarining soni, ularning ish rejimi, bir sutkada smena davomiyligi, boshlanish va tugallanish vaqtlari) aks ettiriladi.

Ushbu ma'lumotlar ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalari tomonidan idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlari bilan yo'riqnomaviy mashg'ulotlarni o'tkazishda, shuningdek, patrullik yo'nalishlarini belgilashda va hududdagi tezkor vaziyatni nazorat qilishda foydalanadi hamda zarurat bilan ularga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritib boriladi.

2-bob. Idoraviy qorovullik bo'linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar haqida ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalarini xabardor qilish hamda ular bo'yicha tezkor ta'sir o'tkazish tartibi

1-§. Idoraviy qorovullik bo‘linmalari tomonidan huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari hamda Milliy gvardiya bo‘linmalarini xabardor qilish va o‘zaro hamkorlik qilish

6. Qo‘riqlanadigan obyektlarda jinoyatlar, boshqa huquqbuzarliklar, jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan, qidiruvdagi, shubhali shaxslar (birinchi navbatda o‘zini o‘ta sergakligi yoki bezovtaligi bilan shubha uyg‘otgan, yil fasliga mos bo‘lmagan yoki bo‘y-bastiga noloyiq kiyimda bo‘lgan, shuningdek tanasida bog‘langan joyi va jarohati bo‘lganlar) va buyumlar, shuningdek, yong‘inlar, avariya, halokatlar, xavfli tabiiy hodisalar, boshqa tabiiy va texnogen ofatlar, mazkur joyga xos bo‘lmagan tutunlar, hidlar, alangalar va shovqinlar paydo bo‘lishi, jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan yoki tahdid solishi mumkin bo‘lgan o‘zga holatlar aniqlanganda idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimlari:

darhol hududiy ichki ishlar organining navbatchilik qismiga xabar beradi;

ichki ishlar organlari xodimlari yoki Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilari (xodimlari) yetib kelgunga qadar huquqbuzarlik va hodisalarning izlari saqlanishi ta‘minlaydi, hodisa joyiga boshqa shaxslarni qo‘ymaslik choralari ko‘radi;

hodisa joyiga yetib kelgan ichki ishlar organi xodimlariga yoki Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilariga (xodimlariga) huquqbuzarlik va hodisalarning o‘ziga ma‘lum bo‘lgan holatlari va vajlari, ularni sodir etgan yoki sabab bo‘lgan shaxslar yuzasidan axborot beradi, huquqbuzarlik va hodisalarning alomatlariga aniqlik kiritishga va ularni rasmiylashtirishga ko‘maklashadi;

tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilishda ishtirok etadi, odamlarni qutqarish va ularga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda avariya-qutqaruv xizmatlariga zaruriy amaliy yordam ko‘rsatadi;

xizmatga doir axborotning, shuningdek, xizmat majburiyatlarini bajarish chog‘ida o‘ziga ma‘lum bo‘lib qolgan davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarning maxfiyligini va saqlanishini ta‘minlaydi.

7. Idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimlari tomonidan huquqbuzarlik va hodisalar haqida ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalariga telefon orqali xabar beriladi.

Telefon aloqasi mavjud bo‘lmagan yoki u ishlagan hollarda huquqbuzarlik va hodisalar haqida xabar aloqaning boshqa turlari orqali, shu jumladan hushtakdan quyidagi signallardan foydalanish yo‘li bilan berilishi mumkin:

“Ushla” — bitta uzun signal;

“Yordamga” — ikkita qisqa signal.

Zarurat bo‘lganda signallar qaytariladi.

2-§. Ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalari tomonidan idoraviy qorovullik bo‘linmalarining huquqbuzarlik va hodisalar haqidagi xabarlari bo‘yicha tezkor ta‘sir o‘tkazish

8. Idoraviy qorovullik bo‘linmalarining xabariga asosan hududiy ichki ishlar organining navbatchilik qismi huquqbuzarlik va hodisalar sodir etilgan hudud (joy) va boshqa tafsilotlariga aniqlik kiritadi hamda ulardan kelib chiqib, zudlik bilan hodisa joyiga profilaktika inspektorini jo‘natadi va (yoki) xabarni ichki ishlar organlari patrul-post xizmatining, yo‘l-patrul xizmati yoki Milliy gvardiya bo‘linmasining navbatchilik qismiga yo‘llaydi.

9. Kelib tushgan xabar bo‘yicha hodisa joyiga yetib kelgan ichki ishlar organlari xodimlarining va (yoki) Milliy gvardiya bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) harakatlari va idoraviy qorovullik bo‘linmalari bilan hamkorlikdagi faoliyati O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda Milliy gvardiyasining idoraviy huquqiy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

3-bob. Idoraviy qorovullik bo‘linmalari xodimlari bilan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalarini o‘zaro hamkorlik qilish bo‘yicha yo‘riqnomaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazish

10. Profilaktika inspektori tomonidan mahalla huquq-tartibot maskanining javobgarligi hududida joylashgan qo‘riqlanadigan obyektlar idoraviy qorovullik bo‘linmalarining xodimlari bilan

jadvalga muvofiq har chorakda huquqbuzarlik va hodisalar yuzasidan ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalarini xabardor qilish hamda o'zaro hamkorlik qilish tartibi bo'yicha yo'riqnomaviy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Yo'riqnomaviy mashg'ulotlarni o'tkazish jadvali va mashg'ulotlar dasturi profilaktika inspektori tomonidan mahalla huquq-tartibot maskanining javobgarligi hududida joylashgan qo'riqlanadigan obyektlar rahbarlari bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi va ichki ishlar organi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

11. Yo'riqnomaviy mashg'ulotlar tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari)ning jamoat tartibini saqlash bo'linmasi boshlig'i va hududiy profilaktika inspektori, qo'riqlanadigan obyektlar Toshkent va Nukus shaharlari hamda viloyatlar markazlarida joylashganda esa, Milliy gvardiya bo'linmasining rahbari tomonidan birgalikda o'tkaziladi.

12. Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlari bilan yo'riqnomaviy mashg'ulotlar quyidagi masalalar bo'yicha o'tkaziladi:

tuman (shahar) va ayniqsa mahalla huquq-tartibot maskani javobgarligi hududida shakllanayotgan tezkor vaziyat, qo'riqlanadigan obyektlar atrofida jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar sodir etilayotganda, jinoyatlar sodir etishda gumon qilinayotgan, qidiruvdagi, bedarak yo'qolgan, boshqa shubhali shaxslar, turli favqulodda va boshqa noodatiy vaziyatlar, shuningdek mazkur joyga xos bo'lmagan tutunlar, hidlar, alangalar va shovqinlar paydo bo'lganda, xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shubhali buyumlar aniqlanganda, qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalari harakatga kelganda vazifalari hamda kechiktirib bo'lmaydigan xatti-harakatlari;

mahalla huquq-tartibot maskani, hududiy ichki ishlar organlarining patrul-post, yo'l-patrul va Milliy gvardiya bo'linmalarining patrullik naryadlari huquqbuzarlik va hodisalar to'g'risida xabar berish, ular bilan axborot almashinuvini ta'minlash, hamkorlik qilish tartibi va usullari.

13. Yo'riqnomaviy mashg'ulotlar o'tkazilgunga qadar javobgarlik hududida sodir etilgan huquqbuzarliklar va jinoyatlar, shuningdek ma'muriy jihatdan chegaradosh bo'lgan hududlardagi vaziyat yuzasidan zarur bo'lgan ma'lumotlar yetkaziladi.

14. Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlari bilan yo'riqnomaviy mashg'ulotlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash bo'yicha yordamchilari, "Fidokor yoshlar" jamoatchilik patrul guruhlari, "Jamoatchilik nazorati maskanlari" a'zolari, jamoat xavfsizligini ta'minlash va huquqbuzarliklarni oldini olish tadbirlariga jalb etilgan boshqa jamoatchilik kuchlari ishtirokida o'tkazilishi tavsiya etiladi.

15. Profilaktika inspektori tomonidan mahalla huquq-tartibot maskanining javobgarligi hududida joylashgan idoraviy qorovullik bo'linmalariga tuman (shahar) hududida ochilmagan jinoyatlar, ularni sodir etishda gumon qilinayotgan, qidiruvdagi va bedarak yo'qolgan shaxslar, ularning umumiy va alohida belgilari (mavjud bo'lsa — fotosuratlari) haqidagi ma'lumot yetkazib boriladi va har hafta yangilab boriladi.

4-bob. Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlarini rag'batlantirish

16. Berilgan xabarlarini jinoyat va boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan yoki qidiruvda bo'lgan shaxslarni aniqlashda, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi holatlarni bartaraf etishda muhim o'rin egallagan, ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalari faoliyatiga ko'maklashish va yaqindan yordam ko'rsatish bo'yicha vazifalarni bajarishda o'rnak ko'rsatgan davlat organlari va tashkilotlarining idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlariga bir martalik pul mukofoti bilan taqdirlash va qimmatbaho sovg'alar bilan mukofotlash moddiy rag'batlantirish choralari qo'llanilishi mumkin.

17. Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish choralari davlat organlari va tashkilotlarining, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini rivojlantirish jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan, tegishligicha davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining, Qoraqalpog'iston Respublikasi ichki ishlar vazirining, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari, Milliy gvardiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari boshliqlarining buyruqlari bilan amalga oshiriladi.

Idoraviy qorovullik bo'linmalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish davlat organlari va tashkilotlarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirilganda shu tashkilot rahbarining buyrug'i chiqariladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

18. Ushbu Nizom talablarini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.10.2022-y., 09/22/598/0927-son)